

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti talaba-yoshlari o'rtasida
o'tkaziladigan
“Muhandislik oyligi” doirasida o'tkaziladigan tanlovning
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur tanlov universitet talaba-yoshlari o'rtasida texnik-texnologik fikrlash va muhandislik qobiliyatlarini namoyon qilish, ularni targ'ib etish, qurilish texnikasi va texnologiyasiga, zamonaviy arxitektura yondashuvlariga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag'batlantirish maqsadida tashkil etiladi.

2. “Muhandislik oyligi” doirasidagi tanlovlarda ta'lim yo'nalishi, sohasi, mutaxassisligidan qat'iy nazar, universitetdagi barcha tahsil olayotgan talabalar jamoaviy yoki yakka tartibda ishtirok etishi mumkin.

3. Tanlovda talaba-yoshlarning keng qamrovli ishtiroki universitetning Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar prorektori hamda fakultet dekanlari tomonidan ta'minlanadi va muvofiqlashtiriladi.

II. Tanlovning maqsadi va vazifalari

4. Tanlovning asosiy maqsadi - texnik-texnologik fikrlash va muhandislik qobiliyatlarini namoyon qilish, ularni targ'ib etish, qurilish texnikasi va texnologiyasiga, zamonaviy arxitektura yondashuvlariga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, targ'ibot-tashviqot ishlarini samarali va tizimli tashkil etish va rag'batlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat.

5. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

- universitet talabalari orasida texnik-texnologik fikrlash va muhandislik qobiliyatlarini namoyon qilish, ularni targ'ib etish, qurilish texnikasi va texnologiyasiga, zamonaviy arxitektura yondashuvlariga bo'lgan qiziqishni keng targ'ib etish;

- Energetika, sun'iy intellekt va atrof-muhit muhandisligining roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish;

- mutaxassislar tomonidan yangi yaratilgan arxitektruaviy loyihalar, qurilish ob'ektlarini barpo etishning yangi zamonaviy texnologiyalari bilan talaba-yoshlarni yaqindan tanishtirib borish, ularda qurilish va arxitektura sohasida ixtirochilik qobiliyatlarini singdirish orqali o'zlarining mustaqil fikr bildirishga oid ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- universitet talabalari orasida texnik-texnologik fikrlash va muhandislik qobiliyatlarini namoyon qilish, ularni targ'ib etish, qurilish texnikasi va texnologiyasiga, zamonaviy arxitektura yondashuvlariga bo'lgan qiziqtirish ishlarining ta'sirchanligini yanada oshirish;

- iste'dodli va iqtidorli talabalarni rag'batlantirishdan iborat.

III. Tanlovni o'tkazish tartibi va muddatlari

6. Tanlovni o'tkazish bo'yicha ta'lim muassasasida tashkil etilgan Ishchi guruh universitet rektori rahbarlik qiladi hamda yuqori saviyada tashkil etilishiga shaxsan mas'ul hisoblanadi.

7. Barcha bosqichlar bo'yicha soha olimlari va amaliyotchi mutaxassislar, jamoat tashkilotlari vakillari o'z fikrlarini bildirishlari mumkin bo'ladi.

12. Tanlov joriy yil aprel oyining 11-sanasi o'tkaziladi.

IV. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

13. Tanlovning barcha ishtirokchilari universitet rahbariyati tomonidan pul mukofoti bilan taqdirlanadi.

14. Tanlovning g'olib 1-, 2-, 3-o'rinni egallagan jamoalari ta'lim muassasasi tomonidan universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan quyidagi tartibda:

T/r	Tanlov yo'nalishi	O'tkaziladigan kunlar	G'oliblarni rag'batlantirish miqdori
1.	Energetika	11.04.2025 yil	GranPri 20.0 mln.so'm 1-o'rin. 6.0 mln.so'm 2-o'rin. 5.0 mln. so'm 3-o'rin. 3.0 mln. so'm
2.	IOT (Sun'iy intellekt)	11.04.2025 yil	GranPri 20.0 mln.so'm 1-o'rin. 6.0 mln.so'm 2-o'rin. 5.0 mln. so'm 3-o'rin. 3.0 mln. so'm
3.	Atrof-muhit muhandisligi	11.04.2025 yil	GranPri 20.0 mln.so'm 1-o'rin. 6.0 mln.so'm 2-o'rin. 5.0 mln. so'm 3-o'rin. 3.0 mln. so'm

V. Yakuniy qoidalar

15. Tanlov natijalari ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib boriladi.

16. Tanlov komissiyasi tomonidan belgilangan o'rin yuzasidan izoh beriladi. Qabul qilingan qarorni muhokama etishga yo'l qo'yilmaydi.